1. Rus qo‘shinlarining birinchi jahon urushidagi “Buyuk chekinishi” quyidagi qaysi davlatning urushga kirish masalasini hal etdi?
A) Turkiyaning
B) Avstriya-Vengriyaning
C) Serbiyaning
D) Bolgariyaning

2. O‘zbekistonda Berdaq tavalludining 170 yilligi nechanchi yilda keng nishonlandi?
A) 1997-yilda
B) 1998-yilda
C) 1996-yilda
D) 1999-yilda

3. Qo‘qon xoni Muhammad Alixon davri tarixiy voqealari batafsil yoritilgan asar nomini ko‘rsating.
A) "Xudoyqul Anvar"
B) "Shohnomayi Nusratpoyon"
C) "Tarixi muhojiron"
D) "Tarixi Jahonnomayi"

4. Amir Temurga ikki kunlik qamaldan so‘ng taslim bo‘lgan shaharni aniqlang.
A) Badaxshon
B) Saroy Berka
C) Hirot
D) Balx

5. Qaysi xalifa hukmronligi davrida arab qo‘shinlari Dog‘istonni egalladi?
A) Usmon
B) Abu Bakr
C) Umar
D) Ali

6. 1804-yilda ko‘tarilgan Dinnosirbek yetakchiligidagi qo‘zg‘olonni bostirish uchun Amir Haydar kim boshchiligida qo‘shin jo‘natgan?
A) Ibrohim Dodxoh
B) Nazarbiy inoq
C) Niyozbek parvonachi
D) Muhammad Yoqub mushrif

7. Tarixga “Chartistlar harakati” nomi bilan kirgan harakat qanday maqsadda boshlanganligini toping.
A) ayollarning saylov huquqlarini himoya qili
B) barcha erkaklarga umumiy saylov huquqi birilishini so‘rab
C) bolalar mehnati taqiqlanishini talab qilib
D) ayollar mehnatini himoya qilib

8. XIX asr oxirida AQShda faoliyat yuritgan monopoliyalar sonini aniqlang.
A) 75 ga yaqin
B) 185 ta
C) 250 dan ortiq
D) 123 ta

9. Miyonqolda qo‘zg‘olon ko‘tarilgan yilda sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.
A) Rossiyada dekabristlar qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tdi.
B) Qo‘qon xoni Umarxon vafot etdi.
C) Do‘st Muhammadxon Afg‘oniston taxtini egalladi.
D) Meksika mustaqillikka erishdi.

10. Buxoro xonligi qaysi hukmdor davrida Boburiylar davlatini tan oldi hamda u bilan savdo va elchilik munosabatlarini o‘rnatdi?
A) Abdullaxon II
B) Ko‘chkunchixon
C) Abu Said
D) Ubaydullaxon I

11. Qo‘qon xoni Muhammad Alixon qachon va kimning foydasiga taxtdan voz kechdi?
A) 1841-yil, Sulton Mahmudxon
B) 1842-yil, Amir Nasrullo
C) 1841-yil, Xudoyorxon
D) 1842-yil, Ibrohim dodxoh

12. Marv, Nishopur, Ray shaharlari nechanchi yillarda Xorazmshoh Takash tomonidan zabt etilgan?
A) 1172-1179-yillar
B) 1153-1164-yillar
C) 1183-1192-yillar
D) 1187-1193-yillar

13. Miloddan avvalgi III asrda Shimoliy Afrika sohillari, Sardiniya, Korsika orollarini o‘z ichiga olgan qadimgi davlatni toping.
A) Finikiya
B) Rim
C) Karfagen
D) Misr

14. Mashhur bolgar inqilobchisi V.Levski qatl etilgan va Xristo Botev halok bo‘lgan yillar mos ravishda to‘g‘ri berilgan javobni toping.
A) 1872-yil, 1876-yil
B) 1870-yil, 1877-yil
C) 1872-yil, 1875-yil
D) 1871-yil, 1876-yil

15. Fransiya hukmron doiralari norozi bo‘lgan Buyuk Britaniya-Fransiya savdo shartnomasi qachon tuzilgan edi?
A) 1860-y.
B) 1850-y.
C) 1861-y.
D) 1857-y.

16. Buyuk Britaniya parlamenti hukumat tomonidan Irlandiyaga gomrul berish taklifini rad etgan yillar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
A) 1881-, 1886-yillar
B) 1882-, 1905-yillar
C) 1886-, 1912-yillar
D) 1905-, 1914-yillar

17. Anglosakson solnomasi qaysi hukmdor davrida tuzila boshlangan?
A) Amrosiy Avrelian
B) Richard II
C) Buyuk Alfred
D) Genrix VI

18. XIX asrning 90-yillariga kelib qaysi davlatning mustamlakalari o‘z hududidan qariyib besh barobar ortiq edi?
A) Buyuk Britaniyaning
B) Rossiyaning
C) Germaniyaning
D) Yaponiyaning

19. Rasmda tasvirlangan inshoot qayerda joylashganligini aniqlang?

A) Samarqanddagi Imom al-Buxoriy yodgorligi.
B) Buxorodagi Imom al-Buxoriy yodgorligi.
C) Abu Mansur al-Moturidiy yodgorligi. Samarqand.
D) Abu Mansur al-Moturidiy yodgorligi. Buxoro.

20. Rasmda keltirilgan tarixiy shaxsga tegishli asarni toping.

A) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”
B) “Fozil odamlar shahri”
C) “Al-jabr val muqobala”
D) “Al-qonun fit-tib”

21. Toj-u taxt uchun o'zaro kurash kimning vafotidan so‘ng yanada avj oldi?
A) Abulxayrxon
B) Shaybonxon
C) Davlatshayx
D) Abu Said Mirzo

22. Qachon Fransiya temir rudasini qazib olish bo‘yicha AQSh va Germaniyani ortda qoldirdi?
A) XIX asr 70-yillariga
B) XIX asr 90-yillariga
C) XIX asr 80-yillariga
D) XIX asr 60-yillarida

23. Hindistonga dengiz yo'lining ochilishida Hindistonga yetib borishgan va uylariga (Portugaliyaga) qaytib kelishgan yillarni aniqlang.
A) 1498-y., 1499-y.
B) 1497-y., 1498-y.
C) 1496-y., 1499-y.
D) 1497-y., 1499-y.

24. ...da O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo'lib o‘tgan AQSh va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi.
A) 2016-yil iyun
B) 2018-yil iyul
C) 2017-yil may
D) 2015-yil avgust

25. 1446-yilda Abulxayrxon o‘z davlatining poytaxtini qayerga ko'chirdi?
A) Oqqo‘rg‘on
B) Suzoq
C) Sig‘noq
D) Tura

26. 1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari qaysi shaharda Orol dengizi muammosiga bag‘ishlangan uchrashuvlar o‘tkazganlar?
A) Toshkent
B) Qizil O’rda
C) Toshhovuz
D) Nukus

27. Berilgan rasmda Qadimgi Rim davlatining aynan qaysi lavozim (tabaqa) egalari tasvirlangan?



A) senatorlar
B) patritsiylar
C) konsullar
D) oddiy aholi (plebeylar)

28. Quyidagi voqealarni xronologik jihatdan ketma- ketlikda joylashtiring.
1) bu paytda Buyuk Britaniya Jamoalar palatasida 652 a’zosi bor edi;
2) xalqaro manapoliyalar soni 100 taga yetdi;
3) jahon elektr bozorini bo‘lib olish va o'zaro hamkorlik qilish to‘g‘risida shartnoma tuzildi.
A) 1, 3, 2 B) 3, 2, 1
C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 1

29. “Markazdan o'tgan ko‘cha shaharni ikki qismga bo‘lgan, undan esa yon atrofga ko'chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan...” Yuqorida keltirilgan ta’rif Xorazmda joylashgan qaysi shahar xarobalariga tegishli?
A) Jonbozqal’a
B) Tuproqal’a
C) Ko'zaliqir
D) Qo‘yqirilganqal’a

30. Ispaniya dengiz sayyohlari tomonidan XVI asrning ikkinchi yarmi - XVII asrning boshlarida kashf etilgan hududlarni aniqlang.
1) Azor orollari; 2) Sulaymon (Solomon) orollari;
3) Kanar orollari; 4) Janubiy Polineziya;
5) Melaneziya.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 5
C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3